

DEONTOLOGIK KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TUZILISHI

Yoqubova Maftuna Shoyim qizi,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

[myoqubova.@gmail.com](mailto:myoqubova@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida deontologik kompetensiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda tarkibiy tuzilishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik deontologiya va kasbiy kompetensiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib berilib, deontologik kompetensiyaning kognitiv, emotsional-aksiologik, faoliyat va refleksiv komponentlari asoslab beriladi. Shuningdek, ushbu kompetensiyaning o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi o'rni va ahamiyati yoritilib, uni shakllantirish zarurati ilmiy asoslanadi. Tadqiqot natijalari deontologik kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: deontologik kompetensiya, pedagogik deontologiya, kasbiy kompetensiya, tarbiya fani o'qituvchisi, pedagogik etika, refleksiya, axloqiy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие деонтологической компетенции будущих учителей предмета «Воспитание», её сущность и структурные компоненты. В исследовании раскрывается взаимосвязь педагогической деонтологии и профессиональной компетентности, обосновываются когнитивный, эмоционально-aksiologический, деятельностный и рефлексивный компоненты деонтологической компетенции. Особое внимание уделяется роли данной компетенции в профессиональной деятельности учителя и необходимости её формирования. Полученные результаты направлены на совершенствование теоретических основ развития деонтологической компетенции.

Ключевые слова: деонтологическая компетенция, педагогическая деонтология, профессиональная компетентность, учитель воспитания, педагогическая этика, рефлексия, нравственные ценности.

Abstract. This article examines the concept of deontological competence of future moral education teachers, its essence, and structural components. The study reveals the relationship between pedagogical deontology and professional competence, substantiating cognitive, emotional-axiological, behavioral, and reflective components of deontological competence. Special attention is paid to the role of this competence in the professional activity of teachers and the necessity of its development. The results of the research contribute to improving the theoretical foundations for the development of deontological competence.

Keywords: deontological competence, pedagogical deontology, professional competence, moral education teacher, pedagogical ethics, reflection, moral values.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi faqat bilim va ko'nikmalar bilan emas, balki uning axloqiy-me'yoriy fazilatlarini bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, tarbiya fani o'qituvchisi yosh avlodning ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy subyekt sifatida yuqori darajadagi kasbiy burch va mas'uliyatni o'zida mujassam etishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, pedagogik faoliyatda **deontologik kompetensiya** tushunchasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. "Deontologiya" termini yunoncha "deon" — burch, "logos" — ta'limot degan ma'nolarni anglatib, kasbiy faoliyatda axloqiy majburiyat va me'yorlarga amal qilishni ifodalaydi.

Pedagogik deontologiya o'qituvchining kasbiy etikasi, mas'uliyati, insonparvarlik tamoyillari asosida faoliyat yuritishini belgilaydi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarda

deontologik kompetensiyani shakllantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — deontologik kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, uning tarkibiy tuzilishini aniqlash va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilishdan iborat.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida deontologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda pedagogika, psixologiya hamda etika fanlarining o'zaro integratsiyasiga tayangan holda kompleks metodologik yondashuv qo'llaniladi. Tadqiqot jarayonida deontologik kompetensiya alohida ajratilgan, mustaqil hodisa sifatida emas, balki o'qituvchining umumiy kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Shu bois, mazkur masalani yoritishda kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, aksiologik, faoliyatli hamda reflektiv yondashuvlar o'zaro uyg'unlikda qo'llaniladi.

Kompetensiyaviy yondashuv tadqiqotning yetakchi metodologik asosi sifatida tanlanadi, chunki u ta'lim natijasini faqat bilim bilan emas, balki shaxsning amaliy faoliyatga tayyorligi, kasbiy vaziyatlarda mustaqil va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyati bilan belgilaydi. Aynan shu nuqtai nazardan, deontologik kompetensiya o'qituvchining kasbiy faoliyatida axloqiy me'yorlarga amal qilishi, pedagogik etika talablariga rioya etishi va o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara olishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning individual xususiyatlari, qadriyatlarini, motivatsiyasi va ichki ehtiyojlari inobatga olindi. Bu esa ularning deontologik kompetensiyasini shakllantirishda faqat tashqi ta'sirlar emas, balki ichki rag'bat va shaxsiy pozitsiya muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tadqiqotda aksiologik yondashuv alohida o'rin egallaydi. Chunki deontologik kompetensiyaning mohiyati bevosita axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik, adolat, kasbiy burch va mas'uliyat tushunchalari bilan bog'liqdir. Shu sababli, mazkur yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda ushbu qadriyatlarni anglash, ularni qadrlash va amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Faoliyatli yondashuv esa deontologik kompetensiyani faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki real pedagogik vaziyatlarda namoyon bo'ladigan amaliy sifat sifatida talqin etishga imkon beradi. Bu esa tadqiqot jarayonida turli vaziyatli topshiriqlar, muammoli holatlar va pedagogik simulyatsiyalardan foydalanishni taqozo etadi. Reflektiv yondashuv esa bo'lajak o'qituvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish, o'z xatti-harakatlariga baho berish va ularni takomillashtirishga intilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik jarayoni belgilanadi. Tadqiqot predmeti esa aynan ushbu jarayonda deontologik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlaridan iborat bo'ladi. Tadqiqotning nazariy asoslarini yaratishda

pedagogik deontologiya, kasbiy kompetensiya, pedagogik etika hamda axloqiy tarbiya masalalariga oid ilmiy manbalar tahlil qilinadi. Bu jarayonda tushunchaviy tahlil orqali asosiy kategoriyalarning mazmuni aniqlashtirildi, turli ilmiy qarashlar solishtirildi va umumlashtiriladi.

Empirik bosqichda esa tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, bir qator metodlardan foydalaniladi. Jumladan, so‘rovnoma yordamida talabalar orasida deontologik kompetensiyaning shakllanganlik darajasi o‘rganiladi. Suhbat va intervyular orqali ularning pedagogik etika, kasbiy burch va mas‘uliyat haqidagi qarashlari aniqlashtiriladi. Pedagogik kuzatuv jarayonida esa talabalar faoliyati, ularning real pedagogik vaziyatlarda tutgan o‘rni va xatti-harakatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, diagnostik metodlar asosida ularning refleksiv qobiliyatlari, axloqiy qaror qabul qilish darajasi va kasbiy pozitsiyasi baholanadi.

Tadqiqot izchil ravishda bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Dastlab tayyorlov bosqichida muammo aniqlashtirildi, ilmiy adabiyotlar o‘rganildi va tadqiqotning metodologik asoslari ishlab chiqiladi. Keyingi diagnostik bosqichda talabalar deontologik kompetensiyasining boshlang‘ich darajasi aniqlanib, mavjud holat tahlil qilinadi. Shakllantiruvchi bosqichda esa maxsus ishlab chiqilgan metodikalar — treninglar, muammoli vaziyatlar, refleksiv topshiriqlar va amaliy mashg‘ulotlar joriy etiladi. Yakuniy bosqichda olingan natijalar tahlil qilinib, ularning samaradorligi baholandi va umumlashtiriladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va haqqoniyligini ta‘minlash maqsadida turli metodlarning o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Nazariy va empirik ma‘lumotlarning o‘zaro mosligi, olingan natijalarning amaliyot bilan tasdiqlanishi hamda ularning tizimli tahlili tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan yondashuv va metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarida deontologik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, mazkur metodologiya bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida deontologik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uni tizimli ravishda takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari. Mazkur tadqiqot doirasida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida deontologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish natijasida bir qator ijobiy o‘zgarishlarga erishilishi mumkin. Avvalo, talabalarda pedagogik deontologiya, kasbiy burch va axloqiy me‘yorlarga oid bilimlarning tizimlashuvi va chuqurlashuvi yuz berishi prognoz qilinadi. Bu esa ularning deontologik kompetensiyaning kognitiv komponenti bo‘yicha ancha yuqori darajaga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida qo‘llanishi rejalashtirilayotgan amaliy treninglar, muammoli vaziyatlar hamda refleksiv mashg‘ulotlar orqali talabalarning axloqiy qadriyatlarga munosabati, kasbiy mas‘uliyatni anglash darajasi va insonparvarlik

tamoyillariga sodiqligi mustahkamlanishi kutilmoqda. Bu o'z navbatida emotsional-aksiologik komponentning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalarda o'qituvchilik kasbiga nisbatan ongli va mas'uliyatli yondashuv shakllanib, ular o'z faoliyatida axloqiy me'yorlarga rioya etishga intiladigan barqaror pozitsiyani egallashi ehtimol qilinadi.

Faoliyat komponenti nuqtai nazaridan esa, bo'lajak o'qituvchilarning real pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, o'quvchilar bilan samarali va etik me'yorlarga asoslangan muloqot olib borish, shuningdek, muammoli holatlarni konstruktiv tarzda hal etish ko'nikmalari shakllanishi kutilmoqda. Ayniqsa, vaziyatli topshiriqlar va pedagogik simulyatsiyalar orqali talabalarning amaliy tayyorgarligi oshishi, nazariy bilimlarni real faoliyatga tatbiq etish imkoniyatlari kengayadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik ta'sirlar natijasida talabalar o'rtasida kasbiy faoliyatga nisbatan yangicha qarashlar shakllanishi, ya'ni o'qituvchilik kasbining nafaqat bilim berish, balki axloqiy yetakchilik va tarbiyaviy mas'uliyatni ham o'z ichiga olishi chuqur anglab yetilishi kutilmoqda. Bu esa ularning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlashga, o'zini pedagog sifatida anglash darajasini oshirishga olib keladi.

Tadqiqot doirasida refleksiv faoliyatga alohida e'tibor qaratilishi natijasida talabalarda o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, o'z faoliyatiga tanqidiy baho berish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarining rivojlanishi kutilmoqda. Bu esa refleksiv komponentning shakllanishiga olib kelib, kelajakda ularning kasbiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Talabalarning o'z xatolarini anglash va ularni bartaraf etishga intilishi deontologik kompetensiyaning barqarorligini ta'minlovchi muhim jihatlardan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijasida ishlab chiqiladigan pedagogik mexanizmlar — integrativ yondashuv, mentorlik tizimi, refleksiv topshiriqlar va axloqiy vaziyatlar asosida o'qitish — o'zining samaradorligini ko'rsatishi va ularni pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga joriy etish imkoniyati yuzaga kelishi kutilmoqda. Ushbu mexanizmlarning tizimli qo'llanilishi natijasida deontologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni yanada maqsadli va samarali tus oladi.

Tadqiqot natijasida deontologik kompetensiyalarni baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa mazkur kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniq diagnostika qilish, monitoring olib borish va natijalarni solishtirish imkonini beradi. Natijada pedagogik ta'lim jarayonida sifat nazoratini kuchaytirish uchun ilmiy asoslangan vositalar yaratiladi.

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida deontologik kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlari o'zaro uyg'un holda rivojlanib, ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi sezilarli darajada oshadi. Bu esa nafaqat individual pedagogning sifat ko'rsatkichlariga, balki ta'lim tizimining umumiy samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqiladigan ilmiy-amaliy tavsiyalar pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini takomillashtirish,

tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish hamda pedagogik jarayonda axloqiy yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli istiqbolda esa bu jarayon jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot yakunida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida deontologik kompetensiyalarning barcha tarkibiy komponentlari — kognitiv, emotsional-aksiologik, faoliyat va reflektiv jihatlar — o'zaro uyg'unlikda rivojlanadi. Bu esa ularning kasbiy faoliyatida axloqiy yondashuvni mustahkamlash, pedagogik etikaga rioya qilish hamda o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqiladigan ilmiy-amaliy tavsiyalar pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, ayniqsa, tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Umuman olganda, deontologik kompetensiya bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan integrativ sifat hisoblanadi. U o'qituvchining faqat bilim va ko'nikmalari bilan emas, balki uning axloqiy pozitsiyasi, kasbiy burchni anglash darajasi, mas'uliyat hissi hamda o'quvchilar bilan munosabat madaniyati bilan bevosita bog'liqdir.

Deontologik kompetensiya tarkibida kognitiv, emotsional-aksiologik, faoliyat va reflektiv komponentlar mavjud bo'lib, ularning o'zaro uyg'un rivojlanishi pedagog shaxsining kasbiy yetukligini ta'minlaydi. Ayniqsa, axloqiy qadriyatlarni anglash va ularga amal qilish, murakkab pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda o'z faoliyatini doimiy tahlil qilish kabi jihatlar zamonaviy o'qituvchi uchun muhim sifatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, deontologik kompetensiyani rivojlantirish jarayoni uzluksiz va tizimli xarakterga ega bo'lib, u nazariy bilimlar, amaliy faoliyat va reflektiv yondashuvning uyg'unligini talab etadi. Pedagogik jarayonda integrativ yondashuv, vaziyatli o'qitish, mentorlik va reflektiv metodlardan foydalanish ushbu kompetensiyaning samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida deontologik kompetensiyaning rivojlanishi nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi, balki ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini yaxshilashga, o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – Toshkent, 1997.
4. Avliyoqulov N.X. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2009.

5. Yusupov M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisodmoliya, 2006.
7. Kodjaspirov A.Yu. Pedagogika. – Moskva: Vldos, 2004.
8. Podlasy I.P. Pedagogika: yangi kurs. – Moskva: Vldos, 2010.
9. Selevko G.K. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Moskva: Narodnoe obrazovanie, 2005.
10. Zimnyaya I.A. Kompetentnost yondashuvi asoslari. – Moskva, 2006.

